

MINTAQAVIY INTEGRATSIYA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING
BIRGALIKDAGI RIVOJLANISHI UCHUN KUCHLI POYDEVORDIR.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7881654>

Ismoilova Maxfuza Mamat qizi

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy integratsiyasi birgalikda rivojlanish uchun nega poydevor ekanligi sabablari va integratsyaning afzalliklari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlari O'zbekiston misolida ko'rib chiqilib, tahlil qilingan. Maqola mintaqaviy integratsyaning Markaziy Osiyo uchun foydalarini ko'rsatib o'tadi.*

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo, mintaqaviy integratsiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, transchegaraviy, maslahat uchrashuvlari, mintaqaviy xavfsizlik, madaniyat kunlari.*

Markaziy Osiyo tarixda ham, bugungi kunda ham dunyoning muhim mintaqalaridan biri hisoblanib, unga beshta suveren davlat kiradi: O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston. Mintqa xalqlari tarix, madaniyat, etnik jihatdan bir-biriga yaqin hisoblanadi. Geografik va tarixan yaqinlik mintaqaviy integratsiyani yo'lga qo'yish va uni rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ammo dastlabki davrlarda Markaziy Osiyodagi mintaqaviy integratsiya jarayonlarini amalga oshirish ba'zi omillar ta'sirida murakkab va muammoli edi. Bugungi kunga kelib Markaziy Osiyo davlatlarining transport, energetika va boshqa sohalardagi hamkorliklari sababli mintaqaviy integratsiyalashuv yaxshilanib bormoqda⁶³. Dastkabki davrlarda chegaralarning yopiqligi yoki ulardan o'tish murakkab bo'lganligi, mintaqaviy savdoning sustligi, viza tizimi, bojaxona nazoratidagi qog'ozbozlik va korrupsiyalar tufayli mintaqaviy integratsiya jarayonlari juda sust bo'lgan. Bunday muammolarni hozirgi kunda ham mavjud emas deb bo'lmaydi. Suvdan foydalanish, chegaralar muammosi bugun ham Markaziy Osiyo davlatlari uchun dolzarb muammolardir. Shunga qaramasdan mintaqaviy integratsiya yildan yilga yaxshilanib bormoqda.

Mintaqaviy integratsiya Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy o'sishida yordam beruvchi asosiy omil. Mintaqaviy integratsiya mintqa davlatlari orasidagi savdo to'siqlarini kamaytirish va o'zaro savdoni kuchaytirishga, odamlar, tovar va xizmatlarning chegaralar orqali erkin harakatlanishiga imkon beradi. Xususan, O'zbekistonni iqtisodiy misol sifatida olamiz. O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ham aynan Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, yaqin

⁶³ <https://yuz.uz/uz/news/markaziy-osiyoda--transport-sohasidagi-ilk-mintaqaviy-markazozbekiston-tashabbusi-bilan-oz-faoliyatini-boshlaydi>

qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo hajmi 2022-yilning yanvar-avgust holatiga ko'ra 15,6 foizga o'sgan bo'lib, bu 4,6 mlrd dollarni tashkil etadi. Bu umumiy savdo hajmining 14,2 foizini tashkil qiladi. Eksportdagi o'sish 18,2 foizni va importda esa 13,8 foiz ko'rsatkichni tashkil etdi. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi eng katta savdo hamkor Qozog'iston va u bilan tashqi savdo aylanmasi 2,9 mlrd dollarni tashkil etgan. Keyingi o'rnlarda esa Qирг'изистон, Туркманистон ва Тоҷикистон туради. Xусусан, Qирг'изистон bilan savdo aylanmasi 756,5 mln dollarni, Turkmaniston bilan 533,5 mln dollarni va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi esa 411,4 millionnni tashkil etdi.⁶⁴ Ushbu ko'rsatkichlar umumiy hisobda 115,1 foizni tashkil qilgan va yildan-yilga o'sib bormoqda. Xususan, bu ko'rsatkich 2020-yilda 84,3 foizni, 2021-yilda esa 134,8 foizni tashkil qilgandi. Shunday qilib, mintaqaviy integratsiyaning iqtisodiy foydalari yuqori, u nafaqat savdoni rivojlantirishda yordam beradi, balki investitsiyalarning ko'payishiga, investitsiyalar orqali yangi biznes imkoniyatlari yaratilishiga yordam beradi. Tabiiy ravishda, yangi bizneslar ko'payishi yangi ish o'rnlari yaratilishini, ishsizlar soni kamayib, aholi turmush darajasining oshishini bildiradi.

Yuqorida mintaqaviy integratsiyaning iqtisodiy foydalarini ko'rib chiqdik. Mintaqaviy integratsiya siyosiy barqarorlikni ta'minlashga ham yordam berishi mumkin, umumiy muammolarni hal qilish uchun birgalikda harakat qilish shular jumlasidan. Bu Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi siyosiy ziddiyatlarni kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari transchegaraviy suv muammolari, Orol muammosi, chegaralar kabi muammolarga birgalikda yechim izlashga mintaqaviy integratsiya turtki bo'ladi. Chunki O'zbekiston barcha Markaziy Osiyo davlatlari bilan umumiy chegaraga ega va muammolarni hal qilishda barcha mintaqa davlatlari bilan oqilona siyosiy munosabatlar olib borish juda muhim. 2017-yilda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini tashkil qilish taklifi ham siyosiy tomonlama mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga imkon bermoqda. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi 2018-yil 15-mart kuni bo'lib o'tdi.⁶⁵ Birinchi uchrashuv davomida Markaziy Osiyo nafaqat geografik, geosiyosiy va balki qadriyatlari mushtarak yagona madaniy makon ekanligi ta'kidlandi. Birinchi uchrashuv davomida erishilgan yutuqlardan biri, O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi hududida shartnoma imzolandi. O'zbekiston va Qирг'изистон o'z chegaralarining 85 foizi yuzasidan kelishuvga erishdi.⁶⁶ Ikkinchi maslahat uchrashuvi 2019-yil 29-noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tdi. Ushbu uchrashuvda iqlim o'zgarishi ta'sirlari, qayta tiklanuvchi energiya salohiyatini rivojlantirish, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va suv masalalariga alohida e'tibor berildi. Shuningdek,

⁶⁴ <https://daryo.uz/2022/09/24/ozbekiston-markaziy-osiyodagi-qaysi-davlatlar-bilan-eng-kop-savdo-qilishi-malum-boldi-infografika/?id=1114521>

⁶⁵ <https://www.uzavtoyl.uz/uz/post/markaziy-osiyo-davlat-rahbarlarining-birinchi-maslahat-uchrashuvi.html>

⁶⁶ <https://www.uzavtoyl.uz/uz/post/markaziy-osiyo-davlat-rahbarlarining-birinchi-maslahat-uchrashuvi.html>

Afg'oniston masalasi ham e'tibor markazida bo'ldi. Uchinchi maslahat uchrashuvi 2021-yil 6-avgustda Turkmanistonda bo'lib o'tdi. ⁶⁷Aynan ushbu uchrashuvda prezidentimiz birgalikdagi sa'y- harakatlar natijasida mintaqamiz barqaror taraqqiyot makoniga aylanib borayotganini ta'kidlab shunday dedi:

"Bu yerda yangi siyosiy muhitni shakllantirishda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari maslahat uchrashuvlarining o'rni beqiyos. Oliy darajadagi muntazam uchrashuvlarimiz mintaqaning betakror salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda." 2022-yil 22-iyunda Qирг'изистонда то'rtinchi maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi⁶⁸. Unda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xavfsizlikni ta'minlash, Markaziy Osiyo davlatlari sherikligini kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Beshinchı maslahat uchrashuvi shu yilning 14-15-sentabr kunlari Tojikiston poytaxti Dushanbeda o'tkazilishi rejalashtirilgan. ⁶⁹Shunday qilib, davlat rahbarlarining shu kabi uchrashuvlari bugungi kunda mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish, davlatlar o'rtasidagi siyosiy hamkorlik va aloqalarni mustahkamlashga yordam bermoqda.

Mintaqaviy integratsiyaning ko'plab afzalliklarini sanab o'tish mumkin. Uning yana bir eng muhim jihatlaridan biri xavfsizlikni yaxshilash. Jumladan, terrorizm, ekstremizm singari umumiyligi xavf va tahdidlarga birgalikda kurashish mintaqada davlatlari xavfsizligining barqaror va mustahkamligida muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari yuqorida qisqa keltirib o'tilgan Orol muammoasi singari atrof-muhit bilan bog'liq muammolarni birgalikda hal etish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Birgalikda ishlab chiqilgan yechimlar mintqada joylashgan har bir davlatga foyda keltiradi. Qo'shimcha ravishda mintaqaviy integratsiya davlatlar o'rtasida madaniy almashinuvni kuchaytirishga sabab bo'ladi. Bunga misol tarzida ta'lim almashinuv dasturlari orqali talabalarning almashinuvlari yoxud mintaqada mamlakatlarida o'tkazilib kelinayotgan madaniyat kunlarini olishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston Qozog'istonning 50 dan ortiq oliy ta'lim muassalari bilan hamkorlik kelishuvlariga ega. 2017-yil noyabr oyida Turkmanistonda O'zbekiston madaniyat kunlari o'tkazilgan. Xuddi shu kabi madaniyat kunlari 2019-yilda Tojikistonda bo'lib o'tgandi va unda o'zbek hunarmandchiligi ko'rgazmalari, milliy ansamblar va xonandalarimiz ishtirokida konsert dasturlari bo'lib o'tgandi. 2022-yilning 21-24-noyabr kunlari Qozog'istonda O'zbekiston madaniyat kunlari o'tkazildi. ⁷⁰Bunday madaniy hamkorliklar mintaqada davlatlarining bir-birining madaniyatini, an'analarini tushunish va ularni qadrlashga o'rgatadi. Shu kabi o'tkazilgan madaniy tadbirlar mintaqada davlatlarining o'zaro hurmat, o'zaro bir-birini tushunish va tarixan tarkib topgan umumiyligi o'zlikni his qilishga yordam beradi.

⁶⁷https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=markaziy_osiyo_davlat_rahbarlarining_uchinchi_maslahat_uchrashuvi_o%E2%80%98z_ishini_yakunladi-AYt

<https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/qirg'-izistonda-markaziy-osiyo-davlat-rahbarlarining-4-maslahat-uchrashuvi-bo-lib/62d9610101a30a05dc47e358>

⁶⁹ <https://insonhuquqlari.uz/oz/news/markaziy-osiyo-davlat-rahbarlari-maslahat-uchrashuvi-bu-yil-dushanbeda-otkaziladi>

⁷⁰ 10. <https://yuz.uz/uz/news/qozogistonda-ozbekiston-madaniyati-kunlari-bolib-otdi>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mintaqaviy integratsiya Markaziy Osiyoda iqtisodiy o'sish, siyosiy barqarorlik va hamkorlik, madaniy sohadagi hamkorlikni rivojlantirish, mustahkamlashda hal qiluvchi poydevor vazifasini o'taydi. Umumiy muammolarni birgalikda hal qilish orqali mintaqa davlatlari yanada mustahkam sheriklik aloqalarini o'rnatadi. Mintqaviy integratsiya jarayonlari Markaziy Osiyoning o'z imkoniyat va salohiyatlarini ko'rsatishda kalit vazifasini o'taydi. Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyani davom ettirar ekan, mintaqa davlatlari birgalikda Markaziy Osiyoning barcha imkoniyatlarini ishga solib, barcha uchun bugungidanda yaxshiroq farovonlik va barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. <https://stat.uz/>
2. <https://daryo.uz/2022/09/24/ozbekiston-markaziy-osiyodagi-qaysi-davlatlar-bilan-eng-kop-savdo-qilishi-malum-boldi-infografika/?id=1114521>
3. <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/markaziy-osiyo-davlat-rahbarlarining-birinchi-maslahat-uchrashuvi.html>
4. <https://xs.uz/uz/post/markazij-osiyo-davlatlari-rahbarlarining-ikkinchi-maslahat-uchrashuvi-khorizhliklar-nigohida>
5. https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=markaziy_osiyo_davlat_rahbarlari_ning_uchinchi_maslahat_uchrashuvi_o%E2%80%98z_ishini_yakunladi-AYt
6. <https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/qirg-izistonda-markaziy-osiyo-davlat-rahbarlarining-4-maslahat-uchrashuvi-bo-lib/62d9610101a30a05dc47e358>
7. <https://insonhuquqlari.uz/oz/news/markaziy-osiyo-davlat-rahbarlari-maslahat-uchrashuvi-bu-yil-dushanbeda-otkaziladi>
8. T.Tursunmuratov "Markaziy Osiyo xavfsizligini ta'minlashda ilmiy-texnologik salohiyat omili" kitobi
9. <https://yuz.uz/uz/news/markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-dostona-hamkorlik--ozbekiston-tashqi-siyosiy-faoliyatining-ustuvor-yonalishi>
10. <https://yuz.uz/uz/news/qozogistonda-ozbekiston-madaniyati-kunlari-bolib-otdi>
11. <https://m.kun.uz/uz/news/2019/11/14/tojikistonda-ozbekiston-madaniyati-kunlari-davom-etmoqda>